



ZULFIYA QUROLBOY QIZINING "AYOL" HIKOYASIDA AYOL OBRAZI

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
1-bosqich talabasi **Taubayeva Orazgul Sag'iydullo qizi**,
2-bosqich talabasi **Axmedova Sarvinoz Alimardon qizi**.
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7805188>

ARTICLE INFO

Received: 26th March 2023
Accepted: 05th April 2023
Online: 06th April 2023

KEY WORDS

Hikoya, ayol obrazi, nasr, mahorat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Zulfiya Qurolboy qizining ijodi, uning hikoyalardagi obrazlar, jumladan, "Ayol" hikoyasidagi ayolning sabri, kuchi, matonati, har qanday vaziyatda ham o'zida kuch, iroda topa olishi, ismiga xos xarakteri, o'zini tuta bilishi asarda ayol obrazi misolida o'z aksini topgan. Shu bilan birga, ayol haqidagi olimlarimizning fikrlari, qarashlari maqolada bayon etilgan.

Hozirgi o'zbek nasri taraqqiyotiga o'zining asarlari bilan katta hissa qo'shayotgan ijodkorlardan biri Zulfiya Qurolboy qizi bo'lib, asarlarining ta'sirchanligi, hayotning achchiq haqiqatlari bilan yaratilganligi uning boshqa ijodkorlardan ajralib turishidan dalolat beradi. Zulfiya Qurolboy qizi (Zulfiya Yo'ldosheva) 1966 yil 15 sentyabrda Jizzax viloyatining Jizzax tumanida tug'ilgan. Jizzax pedagogika institutining o'zbek filologiyasi fakultetini bitirgan.

Hayoti davomida uning "Turmush", "Yovuzlik farishtasi" kabi kitoblari nashr etilgan va bundan tashqari "Ayol", "Kuygan shahar",

"Ikki manzil", "Yozsiz yil" kabi hikoyalari mavjud.

Ijodkor o'z asarlarini hayotiy voqelik asosida yaratganligi, asarlari mavzusi to'g'ri tanlanganligi bilan ajralib turadi. Uning "Ayol" hikoyasi ushbu fikrlarimizning dalilidir. Avvalo, hikoya nomiga diqqat qaratadigan bo'lsak, hikoyaga "Ayol" nomi berilishi bejiz emas. Sababi, hikoyada Nazokat obrazi misolida ayollarimizga xos kuch, sabr, har qanday vaziyatda o'zini tuta olishi kabi xususiyatlar ijodkor tomonidan mahorat bilan aks ettirilgan.

Nazokat tikilib turgan nigohlarini his etdi shekilli, asta ko'zlarini ochdi.

-Yaxshimisan?...

-Tuzuk, -o'rnidan qo'zg'aldi Nazokat.

-Xovliga chiqib kelasanmi?. Shavkat unga qo'lini uzatdi.

-Hali kuchim bor, o'zim yura olaman, -dedi Nazokat g'alati qarab.[1]

"Ayol" hikoyasidan olingan ushbu dialogni o'qir ekanmiz, asar qahramoni Nazokat og'ir ahvolda, ko'p qiyinchiliklarni boshidan o'tkazgan bo'lsa da, o'rnidan turishga kuchi yo'q bo'lishiga qaramasdan u eriga o'zining bu ojizligini ko'rsatgisi kelmaydi. Og'ir ahvolda tursa ham o'rnidan turishga harakat qilishi uning hayotga bo'lgan umidi so'nmaganligidan, hayotga bo'lgan muhabbati, oldinga intilishi, buning uchun o'zida kuch topa olishidan dalolat beradi. Qahramonimiz Nazokat esa bu kuchni erta tong paytidagi tabiat chiroyidan, quyosh nurlaridan, toza havodan oladi.



...Ayol ko'zlarini xiyol ochdi. Shu'la endi uning qorachiqlarida akslandi.

"Qanday yoqimli...Tiriklikning yana bir tongi otdi, - ayol ko'zlarini yumib, quyosh nurlarini simirdi, keyin yana ohista pichirladi: -Seni qanchalik yaxshi ko'raman, quyosh!..."

...Bugun ham havo juda yaxshi, hovliga chiqasanmi? Yozga ham, kuzga ham o'xshamaydi sira, dedi Shavkat.

-Chiqaman, albatta. Ertalabki toza havoni yaxshi ko'raman. [1]

Hikoyadan o'rin olgan ushbu qatorlar yuqoridagi fikrimizning dalilidir.

-Qornimda yana suv to'plangan shekilli? Qarang ...Shu suyuqlikning hammasini birdan oldirsam, shish qaytadimi?...

-Nazokatning ko'zlari g'iltilladi.

-Shish qaytadi, - dedi do'xtir vazminlik bilan. -Lekin menimcha ...

Sizga do'xtir sifatida emas, oddiy bir odam, otangiz qatori bir odam sifatida aytadigan bo'lsam...buni maslahat bermayman...

-Bu gal judayam qiyin bo'lsa kerak-a? Qattiq azob tortsam kerak. [1]

Hikoyadan olingan ushbu parchalar orqali biz ayollarga xos chiroyli xususiyatlardan biri sabrni ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, uning qorni shishganligidan havotirda, qornidagi suvni oldirish qanchalik qiyin bo'lsa ham bunga rozi, sabr bilan barcha og'riqlarni yengib chiqmoqchi. Qanchalik azob tortsa tortsin, qornidagi shishdan qutulsa kifoya. Qahramonimiz Nazokatning bu harakatlari ayollik xususiyatidan biri hisoblanadi.

Hikoyani tahlil qilish borasida Nazokatning qorni shishib yotgan paytidagi uning ahvolini aytib o'tish joiz. U qorni shishib yotgan

paytida bu xunuklikni eri Shavkat ko'rishidan uyaladi, bu ahvolda u bilan ko'rishishni xohlamaydi. Shifokorga erini kirgizmaslikni iltimos qiladi, shifokor rad javobini berganda uning cho'ntagiga pul soladi. Bu degani ushbu pul evaziga erini kirgizmaslikni so'rashidir. Shavkat uni harqanday holatida ham yaxshi ko'radi, lekin qahramonimiz Nazokat bir tarafdin bu holatida eriga xunuk ko'rinishini xohlamaydi, ikkinchi tarafdin bo'lsa erini bu holatni ko'rib qiynalmasligini, vahimaga tushmasligini istaydi.

Yuqorida aytilgan fikrlar orqali yozuvchi ayollarimizga xos xususiyatlardan biri sabrli bo'lishni, ya'ni har qanday holatni sabr bilan yengib o'tishga, kuchli bo'lishga ishoradir. Ayol shunday bir xilqatki, yuqorida tilga olingan so'zlar bunga yaqqol isbotdir. Hattoki olimlarimiz ham ayol haqida o'zlarining go'zal fikrlarini bildirganlar. Shu jumladan, Stiv Maraboli aytganidek: "Ayol samimiyligi kamdan-kam uchraydigan, ammo hech bir go'zallik bilan tenglashtirib bo'lmaydigan holat. Ayolning soxta fe'l - atvordan holi bo'lishi undagi har qanday kam-ko'stni yopib ketadi. Men mana shunday sodda, samimiy ayollarda chinakam go'zallikning guvohi bo'laman." [2]

Qahramonimiz Nazokat ham sodda, samimiy ayol. O'zining kamchiliklari, noqulay holatda bo'lsa ham bildirmasligi, so'nggi nafasigacha oilasi deb yashashi hamda har qanday vaziyatda ham vafo bilan turmush o'rtog'iga go'zal ko'rinishni xohlashi so'zimizning isbotidir.

Ayol islom dinida ham ulug'langan. Islom dini ayol haqida so'z yuritarkan, uni oliy maqom va yuksak ehtirom egasi o'laroq tasvirlaydi. Islomda ayol kishi haq-huquqlari ta'minlangan va burch-vazifalari belgilab berilgan to'laqonli shaxs hisoblanadi. [3]



References:

1. Zulfiya Qurolboy qizi "Ayol" -G`.G`ulom nomidagi nashriyot -matbaa uyi,2005
2. "O'zbek ayollariga bag'ishlangan birinchi onlayn elektron jurnal" 2023. ayol .uz
3. ayol.uz sayti